



HUQUQIY ONG VA MADANIYATNI YUKSALTIRISH - DAVR TALABI.

Qarshi xalqaro universiteti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fakulteti 2-bosqich talabasi

Po'latova Fayyoza Shodi qizi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari, ularning jamiyat barqarorligi va davlat boshqaruvi samaradorligidagi roli chuqur tahlil qilinadi. Globallashuv, axborot makonining kengayishi, fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi kabi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar sharoitida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish zaruriyati asosiy muammolardan biri sifatida ko'riladi. Maqolada huquqiy madaniyat shakllanishida ijtimoiy, siyosiy, pedagogik omillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy savodxonlik, ta'lim-tarbiya, axborot muhiti, ijtimoiy barqarorlik.*

ENHANCING LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE IS A REQUIREMENT OF THE TIMES

Abstract: *This article deeply analyzes the concepts of legal consciousness and legal culture, their role in the stability of society and the effectiveness of state administration. In the context of socio-political processes such as globalization, the expansion of the information space, the formation of civil society institutions, the need to raise legal awareness and culture is raised as one of the main problems. The article examines the role of social, political, pedagogical and informational factors in the formation of legal culture, existing problems and ways to overcome them. As a result of the research, it is emphasized the importance of increasing the level of legal literacy, respect for rights and legal activity of citizens in national development and building a democratic state.*

Key words: *legal consciousness, legal culture, civil society, regulatory legal documents, legal literacy, education and training, information environment, social stability.*



ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация: *В данной статье глубоко анализируются понятия правосознания и правовой культуры, их роль в стабильности общества и эффективности государственного управления. В условиях таких общественно-политических процессов, как глобализация, расширение информационного пространства, формирование институтов гражданского общества, необходимость повышения правового сознания и культуры выдвигается как одна из основных проблем. В статье рассматривается роль социальных, политических, педагогических и информационных факторов в формировании правовой культуры, существующие проблемы и пути их преодоления. В результате исследования подчеркивается важность повышения уровня правовой грамотности, уважения прав и правовой активности граждан в национальном развитии и построении демократического государства.*

Ключевые слова: *правосознание, правовая культура, гражданское общество, нормативные правовые документы, правовая грамотность, образование и обучение, информационная среда, социальная стабильность.*

Bugungi globallashuv sharoitida huquqiy madaniyatni yuksaltirish har bir davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Huquqiy madaniyat jamiyat a'zolarining qonunlarga munosabati, huquqiy bilim darajasi va huquqqa rioya qilish xulq-atvori bilan belgilanadi. Mamalakatimizda huquqiy madaniyatni mustahkamlash, huquqiy ta'limni kengaytirish hamda qonun ustuvorligini mustahkamlash maqsadida qabul qilingan muhim huquqiy hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019 yildagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarning huquqiy bilimni kuchaytirish va huquqiy ongini mustahkamlash bo'yicha keng qamroblilik chora-tadbirlarini belgilaydi. "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanishi belgilab qo'yilgan.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi, davlat boshqaruvi samaradorligi hamda fuqarolik jamiyatining shakllanishida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning roli beqiyosdir. Global geosiyosiy murakkabliklar, raqamli makon kengayishi va



ijtimoiy munosabatlarning diversifikatsiyalashuvi fonida aholining huquqiy savodxonligini oshirish, qonunlarga hurmatni shakllantirish va huquqiy mas'uliyatni targ'ib qilish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ huquqiy hujjatlar davlatda huquqiy davlat qurish tamoyillarini mustahkamlaydi, bu esa har bir fuqaroning huquqiy ongini yuksaltirishni talab etadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni faqat qonunlar bilan cheklanmaydi bu ijtimoiy ong, ta'lim, madaniyat va davlat siyosatining uzviy qismidir. Bugungi kunda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish fuqarolarning ma'naviy va huquqiy kamolotini ta'minlovchi, jamiyatda normativ-huquqiy hujjatlar ustuvorligini hurmat qilishga yo'naltirilgan murakkab jarayon. Shuning uchun maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasi, ularni shakllantiruvchi omillar, zamonaviy muammolar va takliflar ilmiy tarzda tahlil qilinadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ko'rsatkichlaridan biridir. Avvalambor, huquqiy ong ijtimoiy ongning bir qismi hisoblanadi. Huquqiy ong shaxsning qonunlarga, huquqiy normalarga, qadriyatlar va me'yorlarga munosabatini, ularni tushunish va hurmat bilan yondashish qobiliyatini ifodalaydi. Bu ong shaxsning ichki psixologik-huquqiy holatini tashkil etadi va uning huquqiy xulq-atvorini belgilaydi. Huquqiy madaniyat esa bu ongning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni shaxs va jamiyat darajasida qonunlarni hurmat qilish, huquqiy me'yorlarga rioya qilish, fuqarolik burch va huquqlar tizimini e'tirof etish, huquqiy mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Huquqiy ong shakllanmagan jamiyatda huquqiy madaniyat ham yetarli darajada rivojlanmaydi va aksincha, yuqori huquqiy madaniyatga ega jamiyatda fuqarolar o'z burchiga sodiq holda qonunlarga hurmat bilan yondashadi, adolat va demokratik tamoyillar ustuvor bo'ladi.

Bugungi kunda huquqiy madaniyat past bo'lsa, jamiyatda huquqiy bilimsizlik, huquqbuzarliklarning ko'payishi, normativ-huquqiy hujjatlarga hurmatsizlik va fuqarolar orasida huquqiy savodxonlikning pastligi kuzatiladi. Bu holat nafaqat qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatga, balki davlat barqarorligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, yoshlar orasida huquqiy madaniyat yetarli shakllanmagan bo'lsa, jamiyatning kelajagi, demokratik rivojlanishi va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi xavf ostida qoladi. Shu sababli huquqiy madaniyatni yuksaltirish strategik vazifa sifatida ko'riladi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo'llari va strategiyasi bir nechta asosiy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish eng muhim yo'nalishlardan biridir. Maktab, kollej va universitetlarda huquqiy ta'lim va madaniyat kurslarini yo'lga qo'yish, interfaol metodlar,



simulyatsiyalar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar va talabalarni qonuniy fikrlashga o'rgatish samarali natija beradi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy media huquqiy savodxonlikni targ'ib qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Davlat siyosati va ma'muriy islohotlar orqali qonun ustuvorligi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi tizimlarning shaffofligi, fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish ham huquqiy madaniyatni rivojlantirishda samarali chora-tadbirlardan biridir. Bunda huquqiy maslahat markazlari, yuridik klinikalar, fuqarolarni huquqiy masalalarga jalb qilish va ularni rag'batlantirish orqali huquqiy faollikni oshirish mumkin. Madaniy va ma'naviy tarbiya ham huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim jihatlaridan biridir. Huquqiy qadriyatlar, adolat, tenglik va sharaf tamoyillarini targ'ib qilish, huquqiy etikani shakllantirish, jamiyatda qonunlarga hurmatni kuchaytiradi. Shuningdek, fuqarolarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi, o'z burch va huquqlarini anglab, jamiyatga mas'uliyat bilan yondashishlari huquqiy madaniyatni yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bugungi davrning eng dolzarb vazifasi hisoblanadi. Huquqiy ong, qonunlarga hurmat, huquqiy savodxonlik va mas'uliyat fuqarolarda shakllansa, demokratik jamiyat, adolat, fuqarolik huquqlari himoyasi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Agar fuqarolar, yoshlar, davlat va jamoat organlari hamda jamiyat barcha qatlamlari birga harakat qilsa yuksak huquqiy madaniyatga ega jamiyat, qonun ustuvorligi va huquqiy davlat tamoyillari hayotga tatbiq etiladigan demokratik jamiyat shakllanishi mumkin. Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi". Toshkent, 2013
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi farmoni 2019
3. Bo'tayeva M. N. qizi. "Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash". Educational Research in Universal Sciences, 2023.
4. www.lex.uz "About the National database of legislation of the Republic of Uzbekistan (LexUz)". Government portal of the Republic of Uzbekistan.
5. www.uza.uz "Since 25 September 2017 LexUz has received status of official source of normative legal acts."